Kitob va kitobxonlik – inson ma`naviyatining ko`zgusi

Isokulov Farrux Shuxrat o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Amaliy psixologiya yo‘nalishi 3 kurs talabasi

Savodli bo‘la turib kitob o‘qimagan kishining savodsizdan farqi yo‘q

Mark Tven

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o`qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o`rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko`p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog`i”, “Go`zallik – ilmu ma’rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to`g`ri yo`lni ko`rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo`lishining muhim omili – bu kitobga do`st bo`lish, va kitob o`qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o`rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg`ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o`rtasida kitobxonlik madaniyatini targ`ib qilish borasidagi ishlar ko’lami sifat darajaga ko`tarildi. Xususan, O`zbekiston prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to`g`risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo`llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o`tamoqda.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Kitobxonlik madaniyati haqida so`z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o`qish qoidalari va turlari haqida ma’lumotlar, tushunchalar berish lozim bo`ladi.

O`qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo`lib, u ikki jihatga ega: ya’ni, texnik jihati – o`qish va tez o`qish ko`nikmalarini egallash va ijodiy jihati – matndan zarur ma’lumotni tanlab olish.

Zero, kitob - qalb chirog`i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan

taralayotgan va elektron nashrdan topib bo`lmaydigan o`ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo`jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko`ngil cheksiz zavqqa to`lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o`zgachadir.

Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha

bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni

yaratuvchi murabbiydir». Shu ma’noda, shaklidan qat’iy nazar, barcha kitoblar milliy o`zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ`ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Kitob – ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish kishini nafaqat yuksaltiradi, balki unga jahonni tanitadi, hamrohlik qiladi, ezgulikka yetaklaydi. Kitob o‘qigan insonning aqli charxlanib, ma’naviyati boyib yetuklik sari ildamlayveradi.

Hozirgi kunda kitob o`qish an`anasi biroz orqaga qolmoqda edi. Zamonaviy yoshlarimiz kitob o`qishdan ko`ra telefon yoki kompyuter o`yinlari bilan band bo`lmoqdalar. Zamonaviy mamlakatda zamon bilan hamnafas yashash yaxshi, ammo kitobdan oladigan ozuqani inson boshqa hech bir narsadan topa olmaydi.

Darhaqiqat, yoshlar o`rtasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish, ularning badiiy savodxonligini yanada oshirish va mutolaa muhitini shakllantirish uchun sharoitlar yaratilib berilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusni to`rtinchi tashabbusi yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilganligi ham kitob mutolaasiga bo`lgan e`tiborning yaqqol dalilidir.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to`plab avlodlarga yetkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, kitob eng yaqin do`stlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim

ozuqadir. Kitoblar eng yaxshi intellektual dam olishga va tasavvurlar parvoziga taklif qiladi. Ernest Xemingueyning ta’biri bilan aytganda: Yaxshi kitob ayzbergga o`xshaydi, yeti-sakkiztasi suv ostida yashaydi.

Kitob – ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish kishini nafaqat yuksaltiradi, balki unga jahonni tanitadi, hamrohlik qiladi, ezgulikka yetaklaydi. Kitob o‘qigan insonning aqli charxlanib, ma’naviyati boyib yetuklik sari ildamlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar”:

1.Qosimova K., Matchanov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh Ona tili o‘qitish metodikasi. –T: “Nosir” 2009 yil. 352 bet.

2.G‘oziev E. G‘. Psixologiya. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2008 y. 352 b.

3.G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2-kitob. T.: 2002 y.

4.G‘oziev E. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 104 b.

5.Haydarov F.I., Xalilov N.I. Psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi (o’quv qo’llanma). –T.: “Mehnat” nashriyoti, 2007-yil, 178 b.

Internet saytlari: www. tdpu. Uz, www.Ziyonet. Uz, w.w.w.google.uz